

**TARBIYA FANINI O'QITISHDA QO'LLANILADIGAN
INTERFAOL USUL VA METODLAR**

Yunusmetova Nasiba Satimbekovna

Sirdaryo viloyati pedagogik mahorat markazining

Tarbiya fani metodisti

Ta'lif samaradorligini oshirish barcha zamonlarda davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi sanalib kelingan.

O'zbekiston Respublikasining ta'lif sohasidagi Davlat siyosati, boshlang'ich ta'lif o'qituvchisining XXI asr ko'nikmalari: kommunikativ ko'nikmalarini rivojlantirish, muammolarga tanqidiy va kreativ yondashuv, AKT va media savodxonlik, o'zini-o'zi rivojlantirish va uzlusiz kasbiy rivijlanish masalalari, pedagog mas'uliyati va moslashuvchanligi, inklyuziv ta'lifni joriy etish masalalari, fandagi yangiliklar, fanni o'qitishning dolzarb masalalari, o'quvchilar kompetensiyalarini baholash usullari va vositalari, o'zini-o'zi rivojlantirish, uzlusiz kasbiy rivojlanishlarni o'z ichiga olib, ular bo'yicha tegishli yangi bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarini shakllantirishga yo'naltirilgan.

Bugun dunyoda yuz berayotgan jadal suratdagi ilmiy texnologik ozgarishlarni harakatga keltiruvchi kuch - kreativlikdir. Atrofga boqsangiz, har tomonda inson ijodkorligining beqiyos va hayratlanarli namunalariga duch kelasiz: elektron xizmatlar, virtual reallik, to'rtburchak tarvuzlar, tuproqsiz hosil olish... Bularning barchasi inson tasavvuri, tafakkuri mahsuli. Bugun biz uchun odatiy tuyulgan kitob, musiqa, bino, samolyot, hatto lampalar ham qachonlardir orzu va tasavvurda bo'lgan, keyinchalik aql-idrok samarasini o'laroq yaratilgan.

Kreativ yondashuv va yutuqlar dunyo bo'ylab fan va texnologiyadan tortib, falsafa, san'at va ijtimoiy fanlar kabi turli sohalarda insoniyat tamaddunini ilgari surgan. Kreativ fikrlash shunchaki tasodifiy g'oyalar berishdan kattaroq narsadir. U insonga ba'zan murakkab sharoitlarda, yanada yaxshiroq natijaga erishishga imkon beruvchi bilim va tajribaga asoslangan real ko'nikmadir. Butun dunyoda jamiyatlar va tashkilotlar muammolarni hal etishda innovatsion bilim va yaratuvchanlikka tobora ehtiyoj sezmoqda, bu esa, o'z navbatida, innovatsiya va kreativ fikrlash ahamiyati niyanada kuchaytirmoqda. Kreativ fikrlash ta'siri butun jamiyatga sezilarli innovatsiya turlarining ortida turishi rost, lekin u ayni damda universal va tenglashtiruvchi xususiyatga ega fenomen hamdir, ya'ni har qanday shaxs, u yoki bu darajada, kreativ fikrlash qobiliyatiga ega.

Kreativlik - bu bir vaqtning o'zida yangi va qadrli g'oyalarni yaratuvchi ijodkorlik qobiliyatidir.

Shaxsda kreativlik sifatlarini rivojlantirish uchun dastlab bu tushunchaning

mazmunini bilish lozim. Kreativlik inglizcha “create” so‘zidan olingan bo‘lib, yaratish ma’nosini bildiradi. Kreativlik deganda insonning yangilik yaratish, muammolarni yechishga qaratilgan ijodiy qobiliyati tushuniladi. Uning tagzamirida originallik, amaliylik, noodatiylik va erkinlik yotadi. Shuningdek, kreativ fikrlash muayyan masala yuzasidan har tomonlama fikrlash, bir nuqtaga turli yo‘nalishdan yondashishni anglatadi.

Kreativlik shaxsni rivojlantiruvchi kategoriya sifatida inson tafakkuri, ma’naviyatining ajralmas qismi hisoblanadi, u shaxs ega bo‘lgan bilimlarning ko‘p qirrali ekanligida emas, balki yangi g‘oyalarga intilish, hayotiy muammolarni yechish jarayonida kutilmagan va noodatiy qarorlar chiqarishda namoyon bo‘ladi. Ya’ni, berilgan bilimlarni takrorlash orqali kreativlikka erishib bo‘lmaydi, ijodiy fikrlash jarayonida yangi fikr, yangi g‘oyaning paydo bo‘lishi asosiy shartdir.

Ta’limning bugungi vazifasi o‘quvchilarni kun sayin ortib borayotgan axborotta’lim muhiti sharoitida mustaqil faoliyat ko‘rsata olish, turli sohalarda zamonaviy axborot texnologiyalarini samarali qo‘llash va axborot oqimidan oqilona foydalanishga o‘rgatishdan iborat. Shu maqsadda, o‘quvchilarga uzlucksiz ravishda mustaqil ishslash imkoniyati va sharoitini yaratib berish hamda ijodiy fikrlash va mustaqil qarorlar qabul qilishga o‘rgatish zarur.

Tarbiya darslarida o\quvchikarning mantiqiy tafakkur qila olish salohiyati, aqliy rivojlanishi, dunyoqarashi, o‘z-o‘zini anglash salohiyatini shakllantirishga, jismoniy sog’lom bo‘lishga, moddiy borliq go‘zalliklarini his eta olishga, go‘zallik va nafosatdan zavqlana olish, milliy urf-odatlarni o‘zida singdirish, ularga rioya qilishga o‘rgatiladi.

O‘quvchilarda kreativlikni rivojlantirishda didaktik, ta’limiy, innovatsion o‘yinlarning o‘rnini beqiyos.

Didaktik o‘yinlar bolaning his-tuyg‘usiga ta’sir etib, unda o‘qishga bo‘lgan ijobiy munosabat va qiziqish xislatini tarkib toptiradi. Bolalar o‘yinda zo‘r mammuniyat bilan ishtirok etadilar. O‘yin boshlanishini sabrsizlik bilan kutadilar, ularning ongida beixtiyor ertangi o‘quv kunining quvonchli manzarasi gavdalaniadi.

Maktab o‘quvchilarining yosh xususiyatlarini hisobga olib, fanni o‘qitishda g‘oyat samarali bo‘lgan qator o‘yinli texnologiyalar ishlab chiqilgan. Mutaxassislarining fikricha, insonning asosiy faoliyat turi uch ko‘rinish: mehnat faoliyati, o‘yin faoliyati, o‘quv faoliyatida shakllanadi. Ularning barchasi o‘zaro bog‘liq holda sodir bo‘ladi va kreativlik bilan bog‘liq holda uyg‘unlashadi. Ta’kidlashlaricha, bolalarning maktabdagi o‘quv materiallari asosidagi aqliy harakatlarini shakllanish qonuniyatlarini o‘yin faoliyatlarida tarkib topadi. Biroq o‘yinli ta’limni o‘quvchilar bilan ishlashdagi asosiy ta’lim shakli deyish to‘g‘ri emas. U o‘quvchida bilish qobiliyatini shakllantirmaydi, biroq ularning bilish, kreativlik, ya’ni ijodiy faolligini oshiradi, qiziqish uyg‘otadi. Qiziqish bor joyda esa ta’lim sifati

yaxshilanadi.

Tarbiya fanini o'qitish jarayonida interfaol usul va metodlarni qo'llashda birinchi navbatda o'quvchilarning yosh intellektual salohiyatini e'tiborga olish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki, bu yoshdagi o'quvchilar muayyan ma'noda o'z fikriga, o'z dunyoqarashiga ega bo'ladilar. Bu o'qituvchidan alohida e'tibor va darslarga o'zgacha yondashuv asosida tayyorlanishni talab etadi.

Dars boshidayoq "Siz bugun maktabga nimada keldingiz va nima maqsadda keldingiz?" treningi o'quvchilardagiyuqori kayfiyatni ta'minlaydi, kreativligi va diqqatini oshiradi. Sinfdag'i o'quvchilar bugun maktabga nimada keldingiz va nima maqsadda kelganligini aytish jarayonida fikrlar, so'zlar takrorlanmasligiga alohida e'tibor qaratish kerak bo'ladi. Fikrlar haqiqat bo'lmasisligi ham mumkin. O'quvchilar bir-birlarini diqqat bilan kuzatib boradi va bir-birini takrorlamaslikka harakat qilishadi.

"Bank" metodi

O'quvchilar uch guruhga bo'linadi va shunday nomlanadi

1-guruh : Xalq bank

2- guruh: Milliy bank

3-guruh: Aloqa bank

Har bir qatorning boshiga bank nomlari yozilgan konvertlar qo'yiladi.

Har bir guruhga o'zbek pullari rasmi bor kartochkalar tarqatiladi. Uning orqa qismiga oldindan fanizga aloqador savollar yozilgan bo'ladi.

(O'quvchilar soni xohishiy.

Masalan har bir guruhdan 10 tadan)

Savollarga javob bergen o'quvchilar o'zlarining bank konvertlariga pullarini qo'yishadi. Topolmagan o'quvchilar o'z joyida qolishadi.

Oxirida har bir guruhnинг konvertidagi pullarning so'mmasi hisoblanib, ko'p pul to'plagan guruh g'olib bo'ladi.

"Davom ettir" metodi

O'quvchilarni 2 jamoaga bo'lib oldim. Har bir jamoadagi o'quvchilar o'z doskalariga mavzuga oid so'z/birikma/gap yozishadi.

*Eng muhim qoida esa, ikkinchi o'quvchi birinchi o'quvchi yozgan so'zning oxirgi harfidan boshlanuvchi so'z yozishi kerak. Yoki oxirgi bo'g'inidan boshlanuvchi so'z.

*Ixtiyoriy tarzda o'zgartirib, o'z fanningizga moslab olishingiz mumkin.

*Yoki ma'lum bo'limga doir birorta qoida/gap yozilsa, ikkinchi o'quvchi o'sha gap oxiridagi so'zdan boshlanuvchi qoida aytishi mumkin.

*Uchinchi o'quvchi yana shu tartibda davom etadi.

*Bu metod o'quvchilarni sergaklikka chaqiradi!

*O'tilgan mavzularni miyalaridan qidira boshlashadi!

*Xotirani mustahkamlaydi!

*Ziyaraklikni oshiradi!

*Hozirjavoblikka o‘rgatadi!

*Yozma nutqni o‘stiradi!

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Zamonaviy dars. Mas’ul muharrir Sh. Shomansurov – T.: A. Avloniy nomidagi xalq ta’limi xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish markaziy instituti, 2007. –120 bet.
- 2.Otamurodov Globallashuv va milliy ma’naviy xavfsizliklik. –T.: –O‘zbekiston, 2013.
- 3.Tohiriyon A., Sobirova M., Zamonov Z. Milliy g‘oya turkumiga kiruvchi fanlarni o‘qitishda interfaol ta’lim metodlaridan foydalanish bo‘yicha uslubiy tavsiyalar. – T. RTM, 2017 .